O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TOSHEVA DINARA MUZRAFOVNA

O‘ZBEKISTON POPULYATSIYASI BO‘YICHA AUTOSOM DNK MIKROSATELLIT LOKUSLARI POLIMORFIZMINI TAHLIL QILISH

03.00.09 – Umumiy genetika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 575.11; 575.174; 575.857

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tosheva Dinara Muzrafovna
O‘zbekiston populyatsiyasi bo‘yicha autosom DNK mikrosatellit lokuslari polimorfizmini tahlil qilish.....3

Тошева Динара Музрафовна
Анализ полиморфизма микросателлитных локусов аутосомной ДНК в популяции Узбекистана ……...……21

Tosheva Dinara Muzrafovna
Analysis of the polymorphism of autosomal DNA microsatellite loci in the population of Uzbekistan …….....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..……45

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.B.01.15 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TOSHEVA DINARA MUZRAFOVNA

O‘ZBEKISTON POPULYATSIYASI BO‘YICHA AUTOSOM DNK MIKROSATELLIT LOKUSLARI POLIMORFIZMINI TAHLIL QILISH

03.00.09 – Umumiy genetika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/B1844 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Amanturdiyev Ikrom G‘ulomovich** biologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muxammedov Rustam Sultanovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Yakubov Mirakbar Daniyarovich biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Genomika va bioinformatika markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.B.01.15 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil «04» dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.:(+99871-227-15-44).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (296-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel.:(+99871-246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «18» noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «18» noyabr 26-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.S.Eshova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

J.A.Mirzaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

S.G.Boboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor.

KIRISH (Falsafa doktori PhD dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda molekulyar-genetik texnologiyalarning jadal rivojlanishi shaxsni identifikatsiyalash, biologik qarindoshlikni aniqlash, jinoyatlarni fosh etish hamda inson populyatsiyalarining genetik xilma-xilligini baholashda DNK markerlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Autosom DNKning qisqa tandem takrorlanishlari (STR) yuqori polimorfizmi, kodominant irsiylanishi va identifikatsion informativligi tufayli sud-genetik ekspertizaning asosiy markerlaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda dunyoning 84 ta davlatida milliy DNK ma'lumotlar bazalari shakllantirilgan bo‘lib, AQSHning NDIS tizimida 20,4 milliondan ortiq DNK profili jamlangan, Buyuk Britaniyaning NDNAD bazasida 2023-2024-yillarda mos kelish ko‘rsatkichi 64,8 foizni tashkil etgan, INTERPOL bazasi esa 247 mingdan ortiq genetik profilni qamrab olgan. Mazkur holatlar tasodifiy genetik mos kelish ehtimolini populyatsiyaga xos allel chastotalari asosida aniq baholash zaruratini ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, autosom DNK STR lokuslarining genetik polimorfizmini o‘rganish va populyatsiyaga xos ishonchli genetik ma'lumotlar bazalarini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda inson populyatsiyalarining genetik tuzilishi, autosom DNK mikrosatellit lokuslarining allelik polimorfizmi va ularning sud-genetik identifikatsiyadagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada turli populyatsiyalarda STR lokuslarining allel va genotip chastotalari, geterozigotalik darajasi, Xardi-Vaynberg muvozanati hamda asosiy populyatsion-genetik va identifikatsion ko‘rsatkichlarni aniqlash, shuningdek, tasodifiy mos kelish ehtimoli, otalik indeksi va populyatsiyalararo genetik masofani baholash yondashuvlari takomillashtirilmoqda. Xalqaro amaliyotda kengaytirilgan STR panellaridan foydalanish, populyatsion ma'lumotlar sifatini STRidER tizimi orqali nazorat qilish va ehtimollik-statistik hisob-kitoblarni avtomatlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ayniqsa, genetik jihatdan yetarli o‘rganilmagan populyatsiyalarda STR lokuslarining allelik xilma-xilligini aniqlash, noyob allel variantlarini tavsiflash, ularning identifikatsion imkoniyatlarini baholash hamda xalqaro populyatsion-genetik ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda molekulyar-genetik tadqiqotlarni rivojlantirish, sud-genetik ekspertiza natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini oshirish, shaxsni identifikatsiyalash hamda biologik qarindoshlikni aniqlashda zamonaviy genetik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo populyatsiyalarida autosom va Y-xromosoma STR lokuslari polimorfizmini o‘rganish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, avvalgi tadqiqotlar cheklangan lokuslar va alohida tanlanmalar doirasida bajarilganligi sababli respublikaning turli hududlarini qamrab oluvchi kengaytirilgan autosom STR paneli asosida kompleks baholash zarurati saqlanib qolmoqda. Bu yo‘nalish yangilangan "O‘zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish va zamonaviy ilmiy-texnologik yechimlarni joriy etish vazifalari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtayi

nazardan, O‘zbekistonning turli hududlaridan olingan populyatsion tanlanmalar asosida autosom DNKning 23 ta STR lokusi polimorfizmini kompleks o‘rganish, allel va genotip chastotalarini aniqlash, asosiy populyatsion-genetik va identifikatsion statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash, boshqa dunyo populyatsiyalari bilan genetik o‘xshashlik va farqlarni baholash, milliy sud-genetik ma’lumotlar bazasini boyitish hamda ehtimollik-statistik tahlillar uchun maxsus dasturiy ta’minotni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 05-iyuldagi PF-6256-son “Sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (mazkur Farmon bilan yangilangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlangan)[2], O‘zDSt ISO/IEC 17025:2019 Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga umumiy talablar xalqaro standart talablari[3] va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog’liqligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. STR lokuslari asosida populyatsion-genetik tahlillar va allel chastotalari ma’lumotlar bazalarini yaratish, autosom DNK mikrosatellit lokuslarining polimorfizmini o‘rganish, shaxsni identifikatsiya qilishning statistik asoslarini yaratish bo‘yicha xorijiy davlatlarning etakchi olimlaridan S. Niezgoda, B. Shea (1992), B. Budowle (2001), C.Alves va b. (2006), M. Zhabagin va b. (2012), R. Chakraborty, H. Kwon, H.C. Park, W. Kim (2015), Z.Wang (2015), Iogen Ran (2010-2016), Gettings K.B. va boshqalar (2017), Bodner M., Parson W. va b. (2017), K.M. Canturk va b. (2017), Martínez-Cortés G. va b. (2018), X. B. Li, L. Li, Q. Wang (2018), H. B. Yao va b. (2021) lar tomonidan keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borilgan.

MDH davlatlari olimlaridan L.A. Jivotovskiy (2002, 2009), O.P. Balanovskiy (2002, 2008, 2015, 2017), A.T. Agdjoyan (2014-2016), P.L. Ivanov va I.V. Korniyenko (2002, 2015), D.A. Verbenko (2003, 2008), V.A. Stepanov, A.V. Melnikov va boshqalar (2011), O.A. Kravsova, V.N. Skakun va V.P. Pushkarev (2011), B.A. Malyarchuk va M.V. Derenko (2001-2023), V.N. Xarkov va b. (2020-2021), K.V. Vagayseva, V.N. Xarkov va b. (2024-2025) Yevroosiyo, jumladan turkiy va slavyan xalqlari genofondi va DNK-geografiyasini qiyosiy o‘rganish, autosom va Y-xromosoma STR-lokuslari polimorfizmi hamda allel chastotalarini aniqlash, populyatsion ma’lumotlar bazalarini yaratish, mitoxondrial DNK va Y-xromosoma xilma-xilligini baholash, shuningdek, skelet qoldiqlari va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 05-iyuldagi PF-6256-sonli Farmoni;
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni;
[3] O‘z DSt ISO/IEC 17025:2019, Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga umumiy talablar

degradatsiyaga uchragan DNK asosida shaxsni identifikatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan.

Sh.E. Shermatov (2007), D.Sh. Axmedova va boshqalar (2008; 2014), M. Zhabagin va boshqalar (2012), H. Kwon, H.C. Park va W. Kim (2013; 2015), S.K. Kurganov, D.Sh. Axmedova va boshqalar (2018; 2020; 2024), H.B. Yao va boshqalar (2021), D.A. Dalimova (2023), A.T. Agdjoyan va boshqalar (2023) Markaziy Osiyo va O‘zbekiston populyatsiyalarida autosom hamda Y-xromosoma STR-lokuslari polimorfizmi va allel chastotalarini aniqlash, populyatsion-genetik tuzilishni va Orol-Kaspiy mintaqasi aholisi genofondini baholash, ehtimoliy-statistik tahlil uchun ma’lumotlar bazalarini shakllantirish hamda o‘zbek populyatsiyasidagi yevropeoid va mongoloid genetik komponentlarni aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan 15-21 ta STR lokusi bilan cheklangan bo‘lib, O‘zbekiston aholisining keng panelli STR lokuslari bo‘yicha respublika miqyosidagi tizimli tahlillari o‘tkazilmagan. Shu bois 1538 nafar shaxs ishtirokida autosom DNKning 23 ta STR lokusi bo‘yicha allel chastotalarini Respublika darajasida birinchi marta tizimli o‘rganish aholi qamrovi, lokuslar soni va amaliy qo‘llanilishi jihatidan ilmiy yangilik hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170929537 “O‘zbekiston populyatsiyasi polimorfizmini tadqiq qilish hamda “Globalfiler™ PCR Amplification Kit” enzimatik sistemasi asosida ehtimollik-statistik tahlil uchun tayanch parametrlarni yaratish” (2018-2020 yy.) va AL-3022022389-son shartnomaga asosan “Shaxs identifikatsiyasi va qarindoshlikni aniqlash uchun STR va HLA lokuslari genetik profillari, hamda Y-xromosoma gaplotiplari asosida milliy DNK ma’lumotlar bazasini yaratish” (2023-2026 yy.) mavzularidagi ilmiy amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasida autosom DNK 23 ta STR lokuslarining allel chastotalari taqsimotini baholash, asosiy sud-genetik statistik parametrlarni hisoblash hamda ularning shaxsni identifikatsiya qilish, biologik qarindoshlikni aniqlash va sud-genetik tahlillarda qo‘llash imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston aholisi 1538 ta tanlanmasida autosom DNKning 23 ta STR lokuslari polimorfizm tabiatini tahlil qilib, ularning genetik xilma-xilligini o‘rganish va allel chastotalarini hisoblash;

sud genetik ekspertizasining populyatsion genetik ma’lumotlar bazasini O‘zbekiston populyatsiyasi bo‘yicha autosom DNK 23 ta STR lokuslari allel chastotalari bilan boyitish;

O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasida autosom DNK 23 ta STR lokuslari bo‘yicha populyatsion statistik ko‘rsatgichlarni aniqlash;

autosom DNKning 23 ta STR lokuslari identifikatsion ko‘rsatgichlarining

samaradorligini aniqlash;

turli populyatsiyalar bilan taqqoslash asosida O‘zbekiston aholisi o‘rganilgan tanlanmasining 23 ta STR lokuslari bo‘yicha genetik o‘ziga xosligi va genetik masofasini aniqlash;

autosom DNK STR lokuslari allellari ehtimollik statistik tahlilini amalga oshirish va populyatsion statistik ko‘rsatgichlarni hisoblash uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy ta’minot ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublikamizning barcha viloyatlari (Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) dan yig‘ilgan 1538 nafar ayol va erkak genetik jinsli shaxslar biologik (so‘lak) namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi turli millat vakillarining autosom DNKsidagi 23 ta qisqa tandemli takrorlanish lokuslari (D3S1358, D1S1656, D2S441, D10S1248, D13S317, Penta E, D16S539, D18S51, D2S1338, CSF1PO, Penta D, TH01, vWA, D21S11, D7S820, D5S818, TPOX, D8S1179, D12S391, D19S433, D6S1043, D22S1045, FGA) polimorfizmini populyatsion-genetik va statistik usullar yordamida tahlil qilish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni bajarish jarayonida molekulyar genetika, biotexnologiya, bioinformatik dasturlardan va populyatsion statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor, O‘zbekistonning 13 hududidan yig‘ilgan 1538 nafar o‘zaro qarindosh bo‘lmagan shaxs namunalari asosida sud-genetik ekspertiza amaliyotidagi biologik qarindoshlikni aniqlashda qo‘llaniladigan autosom DNK ning 23 ta STR lokuslari allellarining polimorfizm tabiati tahlil qilinib, ularning genetik xilma-xilligi va ularning uchrash chastotalari aniqlangan;

Respublika miqyosida odam DNKsi sud biologik ekspertizasi uchun mo‘ljallangan populyatsion genetik ma’lumotlar bazasi autosom DNKning 23 ta STR lokuslari bo‘yicha aniqlangan allel va genotip chastotalariga doir ma’lumotlar bilan boyitilgan;

autosom DNKning o‘rganilgan 23 ta STR lokuslari bo‘yicha populyatsion statistik ko‘rsatgichlar hisoblab chiqilgan;

autosom DNKning 23 ta STR lokuslari bo‘yicha aniqlangan umumlashtirilgan diskriminatsiya kuchi (CPD), umumlashtirilgan mos kelish ehtimoli (CMP), shuningdek ikki shaxsni farqlash ehtimoli (CPE), ikki shaxsning tasodifiy mos kelish ehtimolligi (CMP), umumlashtirilgan otalik indeksi (CPI) kabi identifikatsion ko‘rsatgichlarning samaradorligi baholangan;

turli populyatsiyalar bilan taqqoslash asosida O‘zbekiston populyatsiyasining o‘rganilgan STR lokuslari bo‘yicha genetik o‘ziga xosligi va genetik masofasi aniqlangan;

autosom DNK STR lokuslari allellari ehtimollik statistik tahlilini amalga oshirish va populyatsion statistik ko‘rsatgichlarni hisoblash uchun “DNA Allele frequency UZ” elektron dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasida autosom DNKning 23 ta STR lokusi allellari polimorfizmi asosida shaxsni identifikatsiyalash va biologik qarindoshlik ehtimolini baholashda foydalanish uchun populyatsion-genetik referent ko‘rsatkichlar aniqlangan;

mahalliy populyatsiyaga xos allel chastotalari asosida otalik va onalik ehtimollari (PP, PM), umumlashtirilgan otalik indeksi (CPI), diskriminatsiya kuchi (PD), otalikni istisno qilishning umumlashtirilgan ehtimoli (CPE) hamda tasodifiy mos kelish ehtimoli (CMP) kabi sud-genetik statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqilgan va ularning identifikatsion samaradorligi baholangan;

O‘zbekiston populyatsiyasiga xos allel chastotalari asosida sud-genetik ekspertiza xulosalarining statistik ishonchliligini oshirish, hisoblash xatoliklarini kamaytirish hamda biologik qarindoshlikni aniqlashda foydalanish uchun ilmiy asoslangan populyatsion-genetik ma’lumotlar shakllantirilgan;

autosom DNKning 23 ta STR lokusi bo‘yicha allel chastotalari ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan hamda sud-biologik ekspertizalarda ehtimollik-statistik hisob-kitoblarni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan “DNA Allele Frequency UZ” dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot zamonaviy molekulyar biologiya, bioinformatika va biotexnologiya usullari yordamida olib borilgan. Tadqiqot natijalalarining respublika va xalqaro miqiyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi, Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatiga kirgan yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston populyatsiyasining turli hududlaridan olingan tanlanmalar asosida autosom DNKning 23 ta STR lokusi bo‘yicha allel va genotip chastotalari, genetik polimorfizm, geterozigotalik darajasi hamda populyatsion-genetik ko‘rsatkichlar kompleks tahlil qilingani, lokuslarning diskriminatsiya kuchi, tasodifiy mos kelish ehtimoli va biologik qarindoshlikni aniqlashdagi informativligi baholangani, shuningdek, boshqa dunyo populyatsiyalari bilan genetik o‘xshashlik va farqlar aniqlanib, O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo aholisi genofondining genetik xilma-xilligi va populyatsion tuzilishi haqidagi ilmiy tasavvurlar kengaytirilgani bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston populyatsiyasiga xos autosom DNKning 23 ta STR lokusi bo‘yicha allel chastotalari ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, sud-genetik ekspertiza amaliyotiga joriy etilgani, shaxsni identifikatsiyalash va biologik qarindoshlikni aniqlashda ehtimollik-statistik hisob-kitoblarning aniqligi hamda ishonchliligini oshirish imkoniyati yaratilgani, shuningdek, ishlab chiqilgan «DNA Allele Frequency UZ» dasturiy ta’minoti yordamida allel chastotalari va sud-genetik statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash jarayonlari avtomatlashtirilib, ekspertiza uchun sarflanadigan vaqt hamda inson omili bilan bog‘liq hisoblash xatoliklarini kamaytirishga erishilgani bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasida autosom DNKning STR lokuslari allel chastotalarini sud-genetik aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasida autosom DNKning 23 ta STR lokuslari allellari polimorfizmini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va uning Xorazm, Farg‘ona, Samarqand va Surxondaryo viloyati bo‘limlaridagi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyalari amaliyotiga joriy etilgan (Adliya vazirligining 2026-yil 25-sentabrdagi 12/6-17577/8–son ma’lumotnomasi). Natijada, biologik qarindoshlik (otalik, onalik, aka-uka, bobo(buvi)-nevara, tog‘a(xola) jiyan va b.) ehtimollik darajalarini hisoblashda aynan O‘zbekiston populyatsiyasiga xos bo‘lgan chastotalardan foydalanish imkonini bergan va qarindoshlik ehtimollik darajasining foiz ko‘rsatgichini yanada (masalan, otalik ehtimollik darajasining, PP 99,999896% dan 99,999999998% ga) ortishiga, otalikni aniqlashda umumlashtirilgan otalik indeksining (CPI) $9{,}61 \times 10^{5}$ dan $5{,}01 \times 10^{9}$ gacha ortishiga, umumlashtirilgan tasodifiy mos kelish ehtimolligining (CMP) $1{,}32 \times 10^{-18}$ dan $2{,}20 \times 10^{-29}$ gacha pasayishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston populyatsiyasiga xos autosom DNK 23 ta STR lokuslarining shaxsni identifikatsiya qilish va biologik qarindoshlikni aniqlashdagi sud-genetik samaradorligini baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar “Qozog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi Sud ekspertiza markazi” Respublika Davlat tashkilotining Ostona shahri bo‘yicha biologik (tibbiy) molekulyar-gnetik tadqiqotlar xizmati Sud ekspertlik Instituti (2026-yil 21-yuldagi 22-04-04/351-sonli ma’lumotnomasi) amaliyotiga joriy etilgan. Natijada, shaxsni identifikatsiya qilishda aynan O‘zbekiston populyatsiyasiga xos bo‘lgan chastotalardan foydalanish imkonini bergan va ikki tasodifiy shaxsni farqlash ehtimolligining (CPD) $1 - 4{,}4 \times 10^{-18}$ dan $1 - 2{,}13 \times 10^{-37}$ gacha ortishiga va biologik qarindoshlikni aniqlashda esa otalikni istisno qilishning umumlashtirilgan ehtimolligining (CPE) 0,999997862 dan 0,9999999968 gacha ortishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan va nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zR FA huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy ta’minotlarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Populyatsion genetika va sud genetikasida autosom DNK mikrosatellit lokuslarining o‘rni**» deb nomlangan birinchi bobida populyatsion genetika va sud-genetik ekspertizasida qo‘llaniladigan molekulyar-genetik markerlar, xususan, autosom DNK STR (Short Tandem Repeat) lokuslarining nazariy asoslari va ahamiyati bo‘yicha respublika va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Bobda DNK polimorfizmining asosiy turlari, mikrosatellit markerlarning tuzilishi, irsiylanish xususiyatlari, mutatsiyalanish darajasi hamda shaxs identifikatsiyasi va biologik qarindoshlikni aniqlashdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, STR lokuslarining xalqaro CODIS, ENFSI va boshqa standart tizimlarda qo‘llanilishi, ularning populyatsion-genetik tahlillardagi informativlik darajasi hamda O‘zbekiston aholisining o‘rganilgan tanlanmasi uchun STR ma’lumotlar bazasini shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Keyingi yillarda O‘zbekiston populyatsiyasida keng qamrovli STR lokuslar bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan darajada amalga oshirilganligi va mazkur yo‘nalishda respublika miqyosidagi populyatsion tahlillarni olib borish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot tajribalarini o‘tkazilgan joy va sharoiti, manbai va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joy, materiallar, molekulyar-genetik va statistik tahlil usullari batafsil yoritilgan. Tadqiqot ishlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi “Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi” laboratoriyasida amalga oshirilgan. Tadqiqot manbai sifatida O‘zbekistonning 13 ta viloyatlarida yashovchi 1538 nafar shaxsdan olingan biologik (so‘lak) namunalaridan foydalanilgan. Izlanishlarda genom DNKni ajratish, Real-time PCR orqali DNK miqdor va sifat tahlili, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), kapillyar elektroforez asosida fragment tahlili va STR lokuslarni genotiplash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlarda “Versa Plex™ 27 PY System”, “Quantifiler™ Trio DNA Quantification Kit” kabi zamonaviy reagent to‘plamlari hamda ABI 3500xl Genetic Analyser va 7500 Real Time PCR System jihozlari qo‘llanilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida DNK ekstraksiyasi jarayonida ekstraksiya manfiy nazorat namunasi (Extraction Negative Control, ENC), miqdoriy va sifat tahlili bosqichida kalibrlangan standart DNK namunalari va ichki nazorat (Internal Positive Control, IPC) va PZR amplifikatsiya jarayonida

Versa Plex™ 27 PY System Kit PZR to‘plami bilan birga taqdim etilgan musbat nazorat DNK namunasi hamda manfiy nazoratlar (No Template Control, NTC) qo‘llanilgan, xalqaro sifat nazorati tizimlari hamda ISO/IEC 17025 standarti talablariga muvofiq akkreditatsiyalangan laboratoriya sharoitlaridan foydalanilgan. Allel chastotalari, geterozigotlik ko‘rsatkichlari, Xardi-Vaynberg muvozanati, diskriminatsiya kuchi, otalik indeksi va boshqa populyatsion-genetik parametrlar maxsus bioinformatik dasturlar va statistik usullar yordamida hisoblangan.

Dissertatsiyaning «**Autosom DNK polimorf mikrosatellit lokuslariga xos bo‘lgan xilma-xillik, o‘ziga xoslik hamda o‘xshashliklarni aniqlashga qaratilgan tahlil natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston populyatsiyasida autosom DNKning 23 ta STR lokuslari bo‘yicha allellar tarqalishi, genetik polimorfizm, geterozigotalik darajasi hamda kriminalistik ahamiyatga ega bo‘lgan populyatsion-genetik ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.

Bobning 1-bo‘limida O‘zbekiston populyatsiyasida 23 ta STR lokuslari bo‘yicha allellar chastotalari hisoblangan (1-jadval). Genotiplash va statistik tahlillar GenePop 4.7.5, PowerStat Algorithms hamda “DNA Allele Frequency UZ” dasturlari yordamida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida 23 ta STR lokuslar bo‘yicha jami 333 ta allel varianti aniqlangan bo‘lib, har bir lokusga o‘rtacha 14,47 ta allel to‘g‘ri kelishi qayd etilgan. Eng yuqori polimorfizm Penta E, FGA va D21S11 lokuslarida kuzatilgan. Allellar chastotalarining statistik ishonchliligi va standart xatolik ko‘rsatkichlari baholangan. Hisoblashlar natijasida barcha lokuslar bo‘yicha standart xatolik (SE) qiymatlari past darajada ekanligi aniqlanib, tanlanma hajmining reprezentativligi tasdiqlangan. Shuningdek, minimal allel chastotasi (P_{min}=0,0016) hisoblab chiqilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar DNK profillarining mos kelish ehtimolligini baholashda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan. Kuzatilgan va kutilgan genotip chastotalarining Hardy-Vaynberg muvozanatiga mosligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aksariyat lokuslarda kuzatilgan genotiplar nazariy kutilgan qiymatlarga mos kelgani aniqlangan. Bu holat o‘rganilgan O‘zbekiston populyatsiyasi tanlanmasida genotiplar taqsimotining Hardy-Weinberg muvozanati kutilmalariga mos kelishini va olingan populyatsion-genetik ko‘rsatkichlarni statistik jihatdan talqin qilish uchun asos mavjudligini ko‘rsatgan. Lokuslar bo‘yicha allel diapazoni (allelic range) va genetik xilma-xillik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Eng keng allel diapazoni Penta E lokusida kuzatilib, eng kichik va eng katta allellar o‘rtasidagi farq 21 takrorlanish birligini tashkil etgan. Shuningdek, D18S51, D12S391 va D19S433 lokuslarida ham yuqori darajadagi genetik xilma-xillik qayd etilgan. Bu lokuslar O‘zbekiston populyatsiyasining genetik o‘ziga xosligini ifodalashda yuqori informativ ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Har bir lokuslar bo‘yicha gomozigot va geterozigot genotiplar soni tahlil qilingan (2-jadval).

O‘zbekiston populyatsiyasida, ayniqsa Penta E, D18S51, D2S1338 va FGA lokuslarida geterozigotalikning yuqoriligi uning keng genetik xilma-xilligini ko‘rsatdi. Chastotasi 0,0003-0,001 bo‘lgan nodir va mikrovariant allellar tasodifiy mos kelish ehtimolini kamaytirib, shaxs identifikatsiyasi hamda qarindoshlikni aniqlashda yuqori diskriminatsion ahamiyatga egaligi aniqlandi. Bu natijalar STR-

allel chastotalari bazasining sud-genetik ekspertizalardagi amaliy ahamiyatini asoslaydi. Olingan natijalar Respublika aholisi uchun ilk bor 23 ta STR lokuslari bo‘yicha milliy populyatsion-genetik ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini bergani va bu ma’lumotlar kelgusida shaxs identifikatsiyasi, biologik qarindoshlikni aniqlash hamda sud ekspertizasi hisob-kitoblarida ishonchli statistik manba sifatida qo‘llanilishi mumkinligi qayd etilgan.

Bobning 2-bo‘limida O‘zbekiston populyatsiyasida 23 ta STR lokuslarining kriminalistik ahamiyati va populyatsion-genetik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. 23 ta STR lokuslari bo‘yicha mos kelish ehtimoli (MP), diskriminatsiya kuchi (PD), polimorfizm informatsion tarkibi (PIC), istisno qilish kuchi (PE), otalik indeksi (TPI), kuzatilgan va kutilayotgan geterozigotalik (H_{obs} va H_{exp}) ko‘rsatkichlari hisoblangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, Penta E, D1S1656, D2S1338, D18S51, D21S11 va FGA lokuslari eng yuqori diskriminatsiya qobiliyatiga ega ekanligi aniqlangan. Ayniqsa, Penta E lokusi eng yuqori informativlik va identifikatsion ahamiyatga ega marker sifatida baholangan (3-jadval).

Geterozigotalik darajasi va genetik xilma-xillik ko‘rsatkichlari baholangan. O‘rtacha kutilayotgan geterozigotalik (H_{exp}) 0,8092 ni tashkil etgan bo‘lib, bu O‘zbekiston populyatsiyasida genetik xilma-xillik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatgan. Eng yuqori geterozigotalik Penta E, D12S391, D18S51 va FGA lokuslarida qayd etilgan. H_{obs} va H_{exp} qiymatlarining o‘zaro yaqinligi lokuslarning aksariyati Xardi-Vaynberg muvozanatiga mos kelishini tasdiqlagan.

Allellarning effektiv soni (Ne) va inbriding koeffitsiyenti (FIS) tahlil qilingan. Ne qiymatlari 2,78 dan 12,63 gacha bo‘lgan oraliqda kuzatilgan bo‘lib, eng yuqori qiymat Penta E lokusida aniqlangan. Lokuslarning aksariyatida FIS qiymatlari nolga yaqin bo‘lib, bu o‘rganilgan tanlanmada sezilarli geterozigota tanqisligi kuzatilmaganini va tasodifiy juftlanish modelidan yaqqol og‘ishlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. 23 ta STR lokuslari bo‘yicha jamlangan diskriminatsiya kuchi va tasodifiy mos kelish ehtimolligi hisoblangan.

Natijalarga ko‘ra, umumlashtirilgan tasodifiy mos kelish ehtimolligi (CMP) $4{,}55 \times 10^{28}$ ni tashkil etgan bo‘lib, ikki tasodifiy shaxsning bir xil DNK profiliga ega bo‘lish ehtimoli juda past ekanligi aniqlangan.

Shu bilan birga, umumlashtirilgan diskriminatsiya kuchi (CPD) $1 - 2{,}20 \times 10^{-29}$ qiymatga teng bo‘lib, STR panelining shaxsni identifikatsiya qilishda o‘ta yuqori aniqlikka ega ekanligi isbotlangan. Biologik otalikni aniqlash uchun ahamiyatli bo‘lgan statistik parametrlar tahlil qilingan.

Hisoblangan umumiy istisno qilish ehtimolligi (CPE) 0,9999999998 ni tashkil etgan bo‘lib, STR panelining otalikni rad etishda yuqori ishonchlilikka ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, umumlashtirilgan otalik indeksi (CombPI) $5{,}01 \times 10^{9}$ ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich otalikni tasdiqlash uchun juda kuchli genetik dalil sifatida baholangan. Dissertatsiya tadqiqotlari natijasi o‘rganilgan 23 ta STR lokuslari orasida D1S1656, Penta E, D18S51, D2S1338, D21S11, D12S391, D6S1043 va FGA markerlari O‘zbekiston populyatsiyasida shaxsni genetik identifikatsiya qilish tadqiqotlari uchun eng yuqori diskriminatsiya kuchiga ega ($PIC > 0{,}8$) markerlar sifatida aniqlandi (1-rasm).

1-jadval

“VersaPlex™ 27PY System Kit” to‘plami bo‘yicha O‘zbekiston populyatsiyasi D2S441 va CSF1PO STR lokuslari allellari va ularning uchrash chastotalari (chastotalar to‘liq ro‘yxati dissertatsiyada ko‘rsatilgan)

D2S441 lokusi			CSF1PO lokusi		
Allellar	Allel chastotasi (Pi) (Birlik ulushlarida keltirilgan)	Standart xatolik darajasi SE(p)	Allellar	Allel chastotasi (Pi) (Birlik ulushlarida keltirilgan)	Standart xatolik darajasi SE(p)
9	0,0020	0,0008	7	0,0016	0,0007
9.1	0,0052	0,0012	8	0,0020	0,0008
10	0,2272	0,0075	9	0,0319	0,0031
11	0,4077	0,0088	10	0,2581	0,0078
11.3	0,0426	0,0036	11	0,2952	0,0082
12	0,0777	0,0048	12	0,3300	0,0084
12.3	0,0029	0,0009	13	0,0696	0,0045
13	0,0234	0,0027	14	0,0101	0,0018
14	0,1830	0,0069	15	0,0016	0,0007
15	0,0254	0,0028			
16	0,0029	0,0009			

2-jadval

O‘zbekiston populyatsiyasida 23 ta STR lokuslar bo‘yicha aniqlangan genotiplar va allellar soni


Mikrosatellit lokuslar nomi	Hosil qilishi mumkin bo‘lgan genotiplar soni (G)	Kuzatilgan genotiplar soni (n)	Kuzatilgan allellar soni (Nall)	Allel diapazoni (Allelic range)	Kutilgan gomozigot genotiplar soni	Kuzatilgan gomozigot genotiplar soni	Kutilgan geterozigot genotiplar soni	Kuzatilgan geterozigot genotiplar soni
D3S1358	45	24	9	8	381,8052	383	1156,1948	1155
D1S1656	190	106	19	11,3	182,5873	190	1355,4127	1348
D2S441	66	48	11	7	400,1649	425	1137,8351	1113
D10S1248	45	30	9	10	342,5242	362	1195,4758	1176
D13S317	45	29	9	8	294,7255	307	1243,2745	1231
Penta_E	325	161	25	21	121,7083	133	1416,2917	1405
D16S539	66	33	11	8	304,4228	316	1233,5772	1222
D18S51	253	102	22	19	200,4055	206	1337,5945	1332
D2S1338	136	75	16	16	183,9392	189	1354,0608	1349
CSF1PO	45	28	9	8	412,7636	446	1125,2364	1092
Penta_D	120	61	15	16	256,0683	266	1281,9317	1272
TH01	45	23	9	5	322,4741	319	1215,5259	1219
vWA	55	35	10	8	295,4872	291	1242,5128	1247
D21S11	276	88	23	10,2	240,1096	237	1297,8904	1301
D7S820	66	38	11	7	302,5665	303	1235,4335	1235
D5S818	66	30	11	11	386,7421	422	1151,2579	1116
TPOX	55	26	10	9	552,4078	586	985,5922	952
D8S1179	78	52	12	10	276,2159	296	1261,7841	1242
D12S391	190	98	19	13	199,9740	223	1338,0260	1315
D19S433	190	78	19	9,2	277,6072	295	1260,3928	1243
D6S1043	153	76	17	13,3	241,8020	267	1296,1980	1271
D22S1045	91	43	13	12	354,9467	381	1183,0533	1157
FGA	300	102	24	14	212,6068	218	1325,3932	1320
O‘rtacha qiymati	126, 13	60,26	14,47	12,30	293, 22	307	1244,78	1231

3-jadval

O‘zbekiston populyatsiyasi bo‘yicha autosom DNK 23 ta mikrosatellit lokuslarning asosiy populyatsion statistik ko‘rsatgichlari

STR lokuslar	D3S1358	D1S1656	D2S441	D10S1248	D13S317	Penta_E	D16S539	D18S51	D2S1338	CSF1PO	Penta_D	TH01	vWA	D21S11	D7S820	D5S818	TPOX	D8S1179	D12S391	D19S433	D6S1043	D22S1045	FGA
Populyatsion-statistik ko‘rsatkichlar																							
MP	0,1032	0,0259	0,1045	0,0848	0,0652	0,0124	0,0685	0,0312	0,0270	0,1177	0,0497	0,0783	0,0650	0,0444	0,0688	0,1000	0,1750	0,0548	0,0307	0,0551	0,0424	0,0898	0,0353
PD	0,8968	0,9741	0,8955	0,9152	0,9348	0,9876	0,9315	0,9688	0,9730	0,8823	0,9503	0,9217	0,9350	0,9556	0,9312	0,9000	0,8250	0,9452	0,9693	0,9449	0,9576	0,9102	0,9647
PIC	0,7098	0.86994	0.703	0,74	0,7816	0,9146	0,7649	0,8527	0,8661	0,6597	0,8053	0,7465	0,7710	0,8195	0,7646	0,6852	0,5118	0,7881	0,8531	0,7869	0,8181	0,7161	0,8427
PE	0,511	0,7476	0,465	0,534	0,5998	0,8231	0,588	0,727	0,749	0,444	0,650	0,584	0,618	0,6868	0,603	0,468	0,313	0,612	0,705	0,614	0,648	0,513	0,711
TPI	2,01	4,05	1,81	2,12	2,50	5,78	2,43	3,73	4,07	1,72	2,89	2,40	2,63	3,24	2,53	1,82	1,31	2,59	3,45	2,60	2,87	2,02	3,52
H(obs)	0,751	0.876	0.723	0,764	0,800	0,913	0,794	0,866	0,877	0,710	0,827	0,792	0,810	0,846	0,802	0,725	0,618	0,807	0,855	0,808	0,826	0,752	0,858
H(exp)	0,7515	0.880	0.7395	0,7771	0,8081	0,9208	0,8021	0,8697	0,8804	0,7317	0,8335	0,7904	0,8079	0,8439	0,8033	0,7485	0,6408	0,8204	0,8700	0,8195	0,8428	0,7693	0,8618
Ne	4,02	8,40	3,84	4,49	5,21	12,59	5,05	7,66	8,34	3,72	6,00	4,76	5,20	6,39	5,08	3,97	2,78	5,56	7,67	5,53	6,35	4,33	7,22
F_{IS}	0,0010	0,0055	0,0218	0,0163	0,0099	0,008	0,0094	0,0042	0,0037	0,0295	0,0077	-0,0029	-0,0036	-0,0024	0,0004	0,0306	0,0341	0,0157	0,0172	0,0138	0,0194	0, 022	0,0041
P-value	0.4519	0.0405	0.1105	0.0457	0.3672	0.2781	0.0218	0.1359	0.7555	0.4556	0.5375	0.8158	0.7037	0.0685	0.7956	0.0397	0.2928	0.3541	0.3745	0.4273	0.0531	0.0983	0.5888

Izoh: **MP (matching probability)** -Mos kelish ehtimoli, **PD (power of discrimination)** - Diskriminatsiya kuchi, **PIC (polymorphism information content)** - Polimorfizm informatsion tarkibi, **PE (power of exclusion)**- Istisno qilish kuchi, **TPI (typical paternity index)** - standart otalik indeksi, **$H_{(obs)}$** (Heterozigote observed) - Kuzatilgan geterozigotlik, **$H_{(exp)}$** (Heterozigote expected**)** - Kutilgan geterozigotlik, **Ne** -allellarning effektivlik soni, F_{IS} - populyatsiyada kuzatilgan va kutilgan geterozigotalik darajalari o‘rtasidagi farq koeffitsiyenti, **P-qiymat (**HWE **P-value)** – Xardi-Vaynberg muvozanatidan og‘ish ehtimoli



1-rasm. 23 ta STR lokuslar bo‘yicha kuzatilgan allellar soni va *PIC qiymatlari taqsimoti*

O‘zbekiston populyatsiyasi uchun 23 ta STR lokus bo‘yicha ilk bor shakllantirilgan allellar chastotasi bazasining amaliy ahamiyati asoslandi. Mazkur panel sud-genetik ekspertiza, shaxs identifikatsiyasi hamda biologik qarindoshlik, jumladan otalikni aniqlashda ishonchli va informativ tizim bo‘lib, yaratilgan baza mintaqaviy va global populyatsiyalar bilan qiyosiy genetik tadqiqotlar uchun nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.


Bobning 3-bo‘limida O‘zbekiston populyatsiyasida aniqlangan 23 ta STR lokuslari bo‘yicha allel chastotalari Afrika, Amerika, Osiyo va Yevropa populyatsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilingan. D3S1358, D1S1656, D2S441 va D10S1248 lokuslari bo‘yicha O‘zbekiston populyatsiyasi allellar taqsimoti asosan Osiyo populyatsiyalariga yaqin ekanligi aniqlangan. Ayrim allellar bo‘yicha Yevropa populyatsiyasi bilan ham o‘xshashlik qayd etilgan. Xususan, D3S1358 lokusida 15 va 16-allellar, D1S1656 lokusida 15 va 16-allellar yuqori chastotada uchragan. D2S441 lokusida 11-allel eng yuqori chastotaga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich boshqa populyatsiyalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan. D13S317, Penta E va D16S539 lokuslari tahlil qilinib, mazkur lokuslar bo‘yicha O‘zbekiston populyatsiyasida Yevroosiyoga xos genetik xususiyatlar shakllanganligi ko‘rsatilgan. Penta E lokusi yuqori polimorfizmga ega ekanligi bilan ajralib turgan va eng informativ lokuslardan biri sifatida baholangan. D16S539 lokusida esa 9.3 va 11.3 kabi ayrim nodir allel variantlari faqat O‘zbekiston populyatsiyasida qayd etilgan. D18S51 va D2S1338 lokuslari bo‘yicha allellar taqsimoti tahlil qilinib, O‘zbekiston populyatsiyasi asosan Osiyo populyatsiyasiga genetik jihatdan yaqinligi aniqlangan. Shu bilan birga, 8, 9.2, 13.1, 13.3 va 27 kabi ayrim nodir allellar faqat o‘zbek populyatsiyasida uchrashi qayd etilgan. D18S51 lokusida 14-allel eng yuqori chastotaga ega bo‘lgan, D2S1338 lokusida esa 23, 19 va 20-allellar dominant allellar sifatida aniqlangan. CSF1PO, Penta D va TH01 lokuslari bo‘yicha ham solishtirma tahlillar amalga oshirilgan. Natijalarga ko‘ra, mazkur lokuslar bo‘yicha O‘zbekiston populyatsiyasida kuzatilgan allel chastotalari ayrim Osiyo va Yevropa populyatsiyalari ma’lumotlari bilan o‘xshashlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Biroq, kam uchraydigan ayrim allellar va allel diapazonidagi tafovutlar O‘zbekiston populyatsiyasiga xos xususiyatlar mavjudligini ham ko‘rsatadi.

O‘zbekiston populyatsiyasining genetik tarkibi tarixiy migratsiya jarayonlari va Yevroosiyo populyatsiyalari bilan uzoq davom etgan genetik aloqalar ta’sirida shakllanganligi asoslangan. Olingan natijalar O‘zbekiston populyatsiyasida STR lokuslarining yuqori polimorfizmga ega ekanligini, ayrim nodir allellarning mavjudligini hamda milliy populyatsiyaning o‘ziga xos genetik profili shakllanganligini ko‘rsatgan. Shuningdek, ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston populyatsiyasining global genetik xaritadagi o‘rnini aniqlash va xalqaro populyatsion-genetik tadqiqotlarda qiyosiy manba sifatida foydalanish mumkinligi ta’kidlangan.

Bobning 4-bo‘limida autosom DNK 23 ta STR lokuslari asosida O‘zbekiston va jahon populyatsiyalari o‘rtasidagi genetik masofalar hamda filogenetik munosabatlar tahlil qilingan. Tadqiqotda Wright-Nei va FST statistik


